



# ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MA'NAVIY TARBIYA: INGLIZ TILI TA'LIMIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

*Nozilaxon Ahmadxon qizi Nuriddinova*

*O`zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola xorijiy tillarni o`qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalar, jahon amaliyoti va so`nggi nazariyalardan foydalangan holda, talabalarni ta`lim jarayonida ma`naviy tarbiyalash hamda ularning diqqatini torta oladigan metodika haqida so`z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik texnologiyalar, ma’naviy tarbiya, fikrlash va tahlil qilish metodlari, qadriyatlar asosida ta’lim, til va axloqiy qadriyatlar integratsiyasi,

*Nozilakhon Ahmadkhon qizi Nuriddinova*

*Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute*

**Annotation:** This article discusses a methodology that utilizes modern technologies, global practices, and the latest theories in the process of teaching foreign languages. It aims to instill moral education in students during the learning process and engage their attention effectively.

**Keywords:** pedagogical technologies, moral education, thinking and analytical methods, value-based education, integration of language and ethical values.

Bugungi kunda globalizatsiya va raqamli texnologiyalar rivoji natijasida chet tillarini o‘rganish zaruriyati ortmoqda. Ingliz tili nafaqat ilm-fan va xalqaro muloqot vositasi, balki turli madaniyatlar o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi. Shu nuqtai nazardan, ingliz tili darslarini o‘qitishda nafaqat lingvistik ko‘nikmalarni rivojlantirish, balki talabalarni ma’naviy tarbiyani shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar, jumladan interaktiv metodlar va raqamli vositalarni qo‘llash orqali ta’lim jarayonida talabalarni axloqiy qadriyatlar, madaniy o‘zaro tushunish va milliy hamda global ma’naviyatga sodiqlik ruhida



tarbiyalash imkoniyati kengayadi. Bu yondashuv nafaqat kasbiy rivojlanishga xizmat qiladi, balki talabalarning shaxsiy va ijtimoiy yetukligini shakllantirishga ham hissa qo'shadi.

Innovatsion ta'lim vositasida ingliz tili darslarida talabalarni ma'naviy shakllantirishning pedagogik asoslari — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni [1], 28.01.2022 yildagi PF-60-son: 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni [2], 11.09.2023 yildagi PF-158-son: "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida; O'zbekiston Respublikasining Qonuni [3], 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son: Ta'lim to'g'risida qonun va boshqa me'yoriy hujjatlarda uzlusiz ta'lim tizimini isloh qilish vazifalari belgilangan bo'lib, bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan ishlash, ularni barkamol avlod sifatida shakllantirish davlat miqyosida muvaffaqiyatli amalga oshirilishida zamin bo'lmoqda. Butun jahon hamjamiyatiga munosib o'rinn egallashga harakat qilayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyati juda kattadir. Bundan tashqari, xorijiy tillarni tez va oson o'rganish uchun ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Ta'lim jarayonini rivojlanish va o'zgartirish o'quvchi va o'qituvchilarning dars jarayonida o'zaro ochiq muloqotga kirisha olishiga bog'liqdir. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metod va texnologiyalar butun bir dars jarayonini va o'quvchilarning faolligini oshiradi, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Pedagogik texnologiyalar o'quvchilarga yangi bilim berish, ko'nikma hosil qilish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rag'batlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Yangi tamoyillar asosida rivojlanayotgan ta'lim tizimini yosh avlodni barkamol, ma'naviy yetuk inson sifatida shakllantirishga qarata olgandir.

Ma'naviy tarbiyada milliy g'oya, milliy g'ururni yuksaltirishga xizmat qiladigan timsollar, ramzlarining har biri – katta bir darslik, kuchli tarbiya vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari, buyuk ajodolar tavallud sanalarini nishonlash ham ma'naviy va tarixiy ahamiyatga ega. Bunday marosimlarni o'tkazish orqali yoshlar yangi qadriyatlar asosida tarbiyalanadi, ular qalbiga tarixni anglash va qadrlash,



o‘tmishga hurmat bilan yondashish, ularni asrab-avaylash, shu xalqqa mansubligi bilan g‘ururlanish tuyg‘ulari singdiriladi. Umuman olganda, ma’naviy jihatdan yaxshi tarbiya olgan shaxs o‘z aqli, o‘z tafakkuri, o‘z mehnati, o‘z mas’uliyati bilan ongli ravishda, ozod va hur fikrli inson bo‘lib yashaydi. Bunday odamlar uyushgan jamiyatni, ular barpo etgan ma’naviy-ruhiy muhitni, soxta aqidalar, vayronkor g‘oyalar va ma’naviy tajovuzlar bilan buzish qiyin. Ularni o‘zlari aql-idrok va qalb amri bilan tanlab olgan hayotiy maqsadlaridan chalg‘itib ham bo‘lmaydi. Hozirgi davrda ma’naviy tarbiya yo‘nalishida mamlakat oldida turgan muhim vazifalarni bajarish, el-yurtga fidoyi va sadoqatli, haqiqiy vatanparvar, chuqur bilimli va ma’nab barkamol shaxslarni tarbiyalash bu borada xizmat qiladigan ziyoli va xizmatchilar, o‘qituvchilar va mutaxassislar, umuman, barcha ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlarining muqaddas burchiga [aylandi](#).

Ma’naviy rivojlanish ta’lim jarayonining muhim qismlaridan biri bo‘lib, insonning ruhiy, axloqiy va madaniy kamol topishiga yordam beradi. Buning uchun bir nechta samarali metodlar mavjud bo`lib, bular quyidagilar:

### **1. Fikrlash va tahlil qilish metodlari**

- Tanqidiy fikrlash – talabalarni mustaqil fikrlashga, axborotlarni tahlil qilishga o`rgatish.
- Reflektiv yozuvlar – o`quvchilar o‘z his-tuyg‘ulari va tajribalarini yozib, ulardan xulosa chiqarishadi.
- Muhokama va munozaralar – axloqiy va falsafiy mavzularda bahs yuritish orqali fikrni shakllantirish.

### **2. Qadriyatlar asosida ta’lim**

- Etika va axloq darslari – insoniylik, samimiylilik, mehr-shafqat kabi fazilatlarni rivojlantirish.
- Madaniyatlararo muloqot – turli mamlakatlarning urf-odatlari va qadriyatları haqida bahs yuritish, bu orqali bag‘rikenglik va tushunish hissini shakllantirish.
- Tarix va san’at o‘rganish – milliy va jahon madaniy merosini tushunish orqali ma’naviy boylik orttirish.



Xorijiy tilni o'qitish metodikasida hozirda madaniyatlararo muloqot iborasi keng qo'llanib kelinmoqda. Aynan shu tushunchani biz turli xildagi kontekstlarda qo'llashimiz mumkin. Aslida esa, Madaniyatlararo muloqot-turli madaniyat vakillarining ijtimoiy kelib chiqishi, mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarsi, urf odatlari, qadriyatlari sistemasi va boshqalar to'g'risidagi muloqoti – ma'lumotidir. Madaniyatlararo muloqot formulasi sabrlilik, bag'rikenglik hisoblanadi.

**Til va axloqiy qadriyatlar integratsiyasi** – Ingliz tili darslarida adabiyot, falsafa va ijtimoiy mavzularni o'z ichiga olgan matnlar orqali talabalarni ma'naviy rivojlantirish. Til o'rghanish jarayonida faqat grammatik qoidalar va lug'at boyligini oshirish emas, balki ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish ham muhimdir. Ingliz tili darslarida adabiyot, falsafa va ijtimoiy mavzularni o'z ichiga olgan matnlardan foydalanish orqali talabalar nafaqat til ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki insoniy qadriyatlar, madaniy bag'rikenglik va tanqidiy fikrflashni ham o'zlashtiradi.

Bu yondashuvning asosiy afzalliklari:

1. *Madaniy va ijtimoiy ongni shakllantirish* – Talabalar ingliz tilida yozilgan asarlarni o'rganib, turli madaniyatlar va jamiyatlar haqida bilib oladi.
2. *Tanqidiy fikrflashni rivojlantirish* – Falsafiy va ijtimoiy mavzular muhokamasi orqali talabalar mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.
3. *Axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash* – Yozuvchilar va faylasuflarning asarlari orqali odob-axloq, insonparvarlik va jamiyatdagi mas'uliyat haqida fikr yuritish.
4. *Tilni tabiiy muhitda o'rghanish* – Turli kontekstlardagi matnlar orqali ingliz tilining hayotiy qo'llanilishiga e'tibor qaratish.

Shu sababli, ma'naviy qadriyatlarni o'rgatish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki butun jamiyatning barqarorligi va yuksalishi uchun zarur. Ma'naviy tarbiya orqali yoshlarni axloqiy qadriyatlar, inson huquqlari va ijtimoiy mas'uliyatlar asosida tarbiyalash, ularga jamiyatda o'z o'rnini to'g'ri topish va o'z kasbini yuksak madaniyat bilan bajarish imkonini beradi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Brown, H. D. (2007). *Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy*. Pearson Education.
2. Byrnes, H. (2006). *Advanced Language Learning: The Contribution of Halliday and Vygotsky*. Continuum.
3. Kramsch, C. (1993). *Context and Culture in Language Teaching*. Oxford University Press.
4. Lipman, M. (2003). *Thinking in Education*. Cambridge University Press.
5. Paul, R., & Elder, L. (2006). *Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life*. Pearson Education.
6. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
7. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3,848 (SJIF)